

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

2026-YIL
IYUN/6-SON, IV-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

ISSN INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, iyun.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

| | |
|--|----|
| EPOKSID-DIAN VA FENOLFORMALDEGID GIBRID BOG'LOVCHISI ASOSIDA YUQORI YEYILISH VA KORROZIYABARDOSH ANTIFRIKSION QOPLAMALAR YARATISH | 10 |
| Bakirov Lutfillo Yuldoshaliyevich | |
| O'ZBEKISTONDA TURIZM SOHASIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIKNI BOSHQARISH VA TARTIBGA SOLISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI..... | 16 |
| Mamayusupova Dilovarxon, Maxmudaliyeva Manzuraxon, Toyirjonov Shokirjon | |
| FRANSUZ, RUS VA O'ZBEK TILLARI SPORT TURIZMI TERMINLARINING LEKSIK-SEMANTIK VA LINGVOMADANIY TADQIQI..... | 20 |
| Ma'rupova Gulnoz | |
| МЕТОДИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ОЦЕНКЕ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ХРАНЕНИЯ ПЛОДОВ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН..... | 24 |
| Muratov Abdulaziz Uktamovich | |
| DIGITAL TRANSFORMATION AND EMERGING TRENDS IN INFORMATION TECHNOLOGY..... | 29 |
| Daminova Barno, Esmurodova Zarnigor, Boltayev Javohir, Kuziboyeva Lobar | |
| FRANSUZ, RUS VA O'ZBEK TILLARI SPORT TURIZMI TERMINLARINING LEKSIK-SEMANTIK VA LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI..... | 34 |
| Ma'rupova Gulnoz Umarjonovna | |
| MINTAQA IQTISODIY O'SISHIDA XIZMATLAR SOHASI TARKIBIY O'ZGARISHLARINING STATISTIK TAHLILI: XORAZM VILOYATI MISOLIDA | 38 |
| Raximov Alisher Ibragimovich | |
| KREDIT SKORINGIDA XULQ-ATVOR OMILLARINI BAHOLASH: NAZARIY ASOSLAR VA AMALIY QO'LLANILISHI | 45 |
| BekmurodovAbbos Amiriddinovich | |
| ECONOMETRIC INVESTIGATION OF AGRICULTURAL PRODUCTION ACTIVITIES IN KARAKALPAKSTAN REPUBLIC..... | 49 |
| Makhambetova Uringul Reimbaevna | |
| GETEROKOMPOZIT POLIMER QOPLAMALAR SIRTINING SHAKLLANISHI VA ULARNING PAXTA TOLALARI SIFATIGA TA'SIRINI TADQIQ ETISH | 55 |
| Bakirov Lutfillo Yuldoshaliyevich | |
| GRADIENT BOOSTING (XGBOOST) VA TEGISHLILIK FUNKSIYALARIGA TAYANGAN STATISTIK KLASSIFIKATSIYA USULINING SOLISHTIRMA BAHOLANISHI | 62 |
| Ergasheva Ma'mura Gayratovna | |
| QURILISH SOHASIDA KICHIK VA YIRIK BIZNES SUBYEKTLARI INTEGRATSIYASI SAMARADORLIGINI EKONOMETRIK BAHOLASH..... | 69 |
| Axmedova Nilufar Shuxratovna | |
| LARAVEL PLATFORMASIDA NEYROTARMOQLARNI QO'LLASH ORQALI FOYDALANUVCHI XATTI-HARAKATLARINI BASHORAT QILISH VA TAVSIYA TIZIMLARINI YARATISH | 74 |
| Jo'rayev To'xtasin, Abdusattarov Odiljon, Boymatov Mexrojiddin, Maxkamov A'zimjon, Nabijonov Abduqodir | |
| BEHIND THE 30% TARGET: A CONCEPTUAL FRAMEWORK FOR WOMEN'S ACADEMIC LEADERSHIP IN UZBEK UNIVERSITIES | 82 |
| Farida Nishanova | |
| QURILISH SANOATIDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH: NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLAR VA AMALIY YONDASHUVLAR | 87 |
| Abdullayev Axror Jaxbarovich | |
| BALIQCILIKDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING OBYEKTIV ZARURIYATI | 92 |
| Iskandar Yunusov | |



| | |
|--|-----|
| TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI KREDITLASHDAGI BANK KREDIT RISKLARINI PASAYTIRISH YO'LLARI..... | 98 |
| Toymuxamedov Ibrohim Rixsiboyevich | |
| KO'P KVARTIRALI UY-JOY FONDINI BOSHQARISHDA PROFESSIONAL XIZMAT KO'RSATISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEKANIZMLARI | 108 |
| Rahimov Qodir Ergashevich | |
| НИЗКОУГЛЕРОДНАЯ ЭНЕРГЕТИКА КАК НАПРАВЛЕНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ МОДЕРНИЗАЦИИ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА | 115 |
| Расулкулов Жамшидбек Акрамкулович | |
| ERKIN IQTISODIY ZONALARNING MOHIYATI VA ULARNING PRINSIPLARI | 124 |
| Ubaydullayev Muxammadjon, Akbarov Diyorbek | |
| RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA MEHMONXONA XIZMATLARINI AVTOMATLASHTIRISHNING IQTISODIY AFZALLIKLARI..... | 128 |
| Raxmonova Nigina Anvarovna | |
| EMPLOYEE WELL-BEING IN POST-REFORM UZBEKISTAN: A SYSTEMATIC LITERATURE REVIEW AND RESEARCH AGENDA | 132 |
| Farida Nishanova | |
| TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI MOLIYALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH MEKANIZMLARI..... | 137 |
| Inobatov Abror Boshlarovich | |
| REAL SEKTORNING INSTITUTSIONAL TARKIBI VA TRANSFORMATSIYA TENDENSIYALARI..... | 144 |
| Isroilova Muhabbat Rustamjon qizi | |
| ОБЕСПЕЧЕНИЕ РОСТА ЭКОНОМИЧЕСКОГО ПОТЕНЦИАЛА ПРЕДПРИЯТИЯ (НА ПРИМЕРЕ ФИРМЕННЫХ МАГАЗИНОВ «SAG EXPRESS») | 151 |
| Мусаева Шоира Азимовна | |
| O'ZBEKISTONDA YALPI ICHKI MAHSULOT DINAMIKASINING ICHKI ISTE'MOLGA TA'SIRI | 161 |
| Djumayev Zayniddin Axmedovich | |
| O'ZBEKISTON TASHQI IQTISODIY FAOLIYATIDA KICHIK BIZNES O'RNINI OSHIRISHNING STATISTIK USULLARDAGI TAHLILI..... | 166 |
| Yadgarova Nigora Rixsulla qizi | |
| KATTA HAJMDAGI MA'LUMOTLARNI REAL VAQT REJIMIDA VIZUALIZATSIYA QILISH UCHUN ADAPTIVE M4 GEOMETRIK-PERSEPTUAL AGREGATSIYA ALGORITMI..... | 170 |
| Nuraliyev Faxriddin, Hotamov Farhod, Muxamedjonova Zuxra | |
| АЛГОРИТМ ОПТИМИЗАЦИИ ПРОПУСКНОЙ СПОСОБНОСТИ В РАЗВЕТВЛЁННЫХ ПАССИВНЫХ ОПТИЧЕСКИХ СЕТЯХ (PON)..... | 175 |
| Киямов Рахматулло Рузиевич | |
| MARKETING KOMMUNIKATSIYALARI ORQALI HUDUDLARNING INVESTITSION SALOHİYATINI RIVOJLANTIRISH..... | 180 |
| Xolmurotova Diyoraxon, Xoliyorova Shoxista | |
| OZIQ-OVQAT XAVSIZLIGINI TA'MINLASHDA DAVLAT STRATEGIK ZAXIRALARINING O'RNINI | 184 |
| Bazarov Nazirjon, Normurodov Alibek | |
| O'ZBEKISTONDA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH VA UNI BARTARAF ETISHDA TADBIRKORLIKNING ROLI: IQTISODIY TAHLIL VA TENDENSIYALAR..... | 190 |
| Uzakov Sh. Sh. | |
| MINTAQADA TABIIY KAPITALNI JAMG'ARISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH (XORAZM VILOYATI MISOLIDA)..... | 196 |
| Raximov Faxriddin Shavkatovich | |
| СОВРЕМЕННЫЕ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ УГРОЗЫ ФИНАНСОВОЙ БЕЗОПАСНОСТИ СТРАХОВЫХ КОМПАНИЙ И ПРИЧИНЫ ИХ ВОЗНИКНОВЕНИЯ | 201 |
| Петр Ким | |



| | |
|--|-----|
| УЧЁТ ВЫБЫТИЯ ОСНОВНЫХ СРЕДСТВ И ЕГО ВЛИЯНИЕ НА ФИНАНСОВЫЕ РЕЗУЛЬТАТЫ ОРГАНИЗАЦИИ..... | 207 |
| Туракулов Шахриёр, Пашаходжаева Дилдора HUDUDIY IQTISODIY O'SISH DRAYVERLARINI KO'P OMILLI REGRESSION TAHLIL ASOSIDA MIQDORIY BAHOLASH (BUXORO VILOYATI TUMANLARI MISOLIDA)..... | 213 |
| Ergashev Sherali Erali o'g'li NOAN'ANAVIY PUL-KREDIT SIYOSATI INSTRUMENTLARINING MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLARGA QISQA MUDDATLI TA'SIRINI EMPIRIK BAHOLASH | 217 |
| Djumonov Dilshod Safaroliyevich O'ZBEKISTONDA YALPI ICHKI MAHSULOT DINAMIKASINING ICHKI ISTE'MOLGA TA'SIRI | 222 |
| Djumayev Zayniddin Axmedovich JIZZAX VILOYATI KICHIK BIZNES TIZIMINING EMPIRIK MA'LUMOTLAR BAZASI VA TAVSIFIY STATISTIK TAHLILI | 227 |
| Atamuratova Gulrux Muzafarovna KIMYO SANOATI KORXONALARIDA DIVERSIFIKATSIYA SAMARADORLIGINI INTEGRAL BAHOLASH VA 2032-YILGACHA PROGNOZLASH..... | 232 |
| Razikov Otabek Rustamovich ИССЛЕДОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИЧЕСКИХ ПАРАМЕТРОВ РАЗВОЛКНЕНИЯ ПУТАНКИ | 240 |
| Одилхонова Нафиса, Атаханов Авазбек SOLIQ BOSHQARMALARIDA AGILE MENEJMENT TAMOYILLARIDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARINING EMPIRIK-STATISTIK TAHLILI | 247 |
| Sayfiyev Jasur Ravshanovich O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA DAVLAT XARIDLARI TIZIMIDA RAQOBAT MUHITI VA SHAFFOFLIKNI TA'MINLASHNING MOLIYAVIY-IQTISODIY MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH | 253 |
| Rizoqulova Elnora Otabek qizi YOSHLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHNING MINTAQAVIY OMILLARI..... | 260 |
| Ergashev Erkin Iroqovich QULOQ CHANOG'I VA YUZ YON TASVIRI ASOSIDA SHAXSNI IDENTIFIKATSIYALASH..... | 264 |
| Mamatov Narzillo, Samijonov Abdurashid, Abdullaeva Barno, Usarov Jurabek ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ЭФФЕКТИВНОСТЬ ПРИМЕНЕНИЯ РОТОРНО-УПРАВЛЯЕМЫХ СИСТЕМ (РУС) И ВИНТОВЫХ ЗАБОЙНЫХ ДВИГАТЕЛЕЙ (ВЗД) ПРИ БУРЕНИИ НЕФТЯНЫХ И ГАЗОВЫХ | 271 |
| Жахонгир Эркин угли Абдиганиев, Шерали Халлокович Умедов KO'KRAK BEZI SARATONINING MOLEKULAR SUBTIPLARINI PROGNOZ QILISHDA MULTIPARAMETRIK MRT VA SUN'IY INTELLEKT MODELLARINING INTEGRATSIYASI | 282 |
| Sulaymanov Dilshod, Alikariyev Isroiljon ERKIN IQTISODIY HUDUDLAR VA KICHIK SANOAT ZONALARINI TASHKIL ETISH HAMDA TAKOMILLASHTIRISH ("URGUT" ERKIN IQTISODIY ZONASI MISOLIDA) | 288 |
| Yazdanov Mirjaxon G'ayrat o'g'li | |

ERKIN IQTISODIY HUDUDLAR VA KICHIK SANOAT ZONALARINI TASHKIL ETISH HAMDA TAKOMILLASHTIRISH (“URGUT” ERKIN IQTISODIY ZONASI MISOLIDA)

Yazdanov Mirjaxon G‘ayrat o‘g‘li

Bank-moliya akademiyasi magistranti

E-mail: mrjakhon_yazdanov1@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada erkin iqtisodiy zonalarning (EIZ) mamlakat investitsion jozibadorligini oshirishdagi o‘rni “Urgut” EIZ misolida tahlil qilinadi. Zonaning so‘nggi yillardagi rasmiy statistik ko‘rsatkichlari asosida investitsiyalar, eksport va ishlab chiqarish dinamikasi baholanadi. Shuningdek, muallif tomonidan bir ish o‘rniga to‘g‘ri keluvchi investitsiya hajmi, eksport intensivligi hamda loyihalarni ishga tushirish darajasi kabi nisbiy samaradorlik koeffitsiyentlari hisoblab chiqilgan. Tadqiqot natijalari zonada kapital sig‘imining ortib borayotganini, loyihalarni ishga tushirish jarayonida esa yanada samarali boshqaruv mexanizmlarini qo‘llash zarurligini ko‘rsatadi. Ushbu holat xalqaro nazariy yondashuvlar asosida izohlanadi.

Kalit so‘zlar: erkin iqtisodiy zona, kichik sanoat zonasi, investitsion faollik, “Urgut” EIZ, samaradorlik koeffitsiyenti, eksport salohiyati.

Аннотация. В статье анализируется роль свободных экономических зон (СЭЗ) в повышении инвестиционной привлекательности страны на примере СЭЗ “Ургут”. На основе официальных данных за 2017–2024 гг. оценивается динамика инвестиций, экспорта и производства, а также рассчитываются относительные коэффициенты эффективности. Результаты исследования показывают рост капиталоемкости зоны и необходимость дальнейшего совершенствования механизмов запуска проектов.

Ключевые слова: свободная экономическая зона, инвестиционная активность, СЭЗ “Ургут”, эффективность, экспорт.

Abstract. The article analyzes the role of free economic zones (FEZs) in enhancing a country’s investment attractiveness, using the “Urgut” FEZ as a case study. Based on official statistics for 2017–2024, the study assesses the dynamics of investment, exports and production, and calculates relative efficiency indicators, including investment per job, export intensity and the project-launch rate. The findings indicate increasing capital intensity in the zone and highlight the need to further improve project implementation mechanisms. This trend is interpreted through international theoretical approaches.

Keywords: free economic zone, small industrial zone, investment activity, “Urgut” FEZ, efficiency coefficient, export potential.

KIRISH

Jahonda moliyaviy resurslarga bo‘lgan kuchli raqobat sharoitida iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini takomillashtirish, maxsus iqtisodiy zonalarda investitsiya muhiti jozibadorligini yanada oshirish, yangi ishlab chiqarish tarmoqlarini ishga tushirish, investitsiya loyihalarini moliyalashtirish uchun xorijiy kredit liniyalarini jalb qilish, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar oqimini ko‘paytirish, maxsus iqtisodiy zonalardagi soliq va bojxona imtiyozlari samaradorligini oshirish hamda yangi ish o‘rinlarini yaratishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. BMT hisobotiga ko‘ra, “2025-yilda jahonda iqtisodiy o‘sish sur‘ati 2,8 foiz, dengizga bevosita chiqish imkoniyatiga ega bo‘lmagan rivojlanayotgan davlatlarda (the landlocked developing countries) esa o‘sish ko‘rsatkichi 4,9 foizni tashkil etishi” prognoz qilinmoqda [1]. Bu esa, o‘z navbatida, maxsus iqtisodiy zonalarda investitsiya muhiti jozibadorligiga tashqi va ichki omillarning ta‘sir darajasini baholash, investitsiya muhiti jozibadorligining chegaraviy qiymatlarini ishlab chiqish, “yashil iqtisodiyot”, tarif va notarif mexanizmlar orqali investitsiya muhiti jozibadorligini oshirish zaruratini kuchaytirmoqda.

Jahonda investitsiya muhiti jozibadorligini ta‘minlash orqali investitsion faollikni rag‘batlantirish, maxsus iqtisodiy zonalarda investitsiya loyihalarini moliyalashtirishni diversifikatsiya qilish, taqdim etiladigan moliyaviy imtiyozlarning samaradorlik darajasini baholash, o‘rta va uzoq muddatli istiqbolda inflyatsiya ko‘rsatkichlarining



investorlar daromadlariga ta'sirini prognoz qilish hamda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish samaradorligi indeksini aniqlashga qaratilgan ilmiy izlanishlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Investitsiyalarni jalb qilishda maxsus iqtisodiy zonalar imkoniyatlaridan samarali foydalanish, ularning faoliyat samaradorligini baholashning metodologik jihatlarini takomillashtirish, ko'p omilli va panel ekonometrik modellar, shuningdek, "millionli shahar" konsepsiyasi uslubiyoti asosida investitsiya muhiti jozibadorligini baholash metodologiyasini ishlab chiqish kabi yo'nalishlarda ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

O'zbekistonda investitsiya muhiti jozibadorligini oshirish borasida "xorijiy ekspertlarni jalb qilgan holda tarmoqlar va hududlar bo'yicha investitsiya strategiyasini ishlab chiqish, bunda jalb qilinayotgan investitsiyalar samaradorligi va iqtisodiy-ijtimoiy ta'sirini baholash, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy sarmoyalarni yo'naltirish uchun yetakchi sohalarni belgilash" vazifasi belgilab qo'yilgan [2]. 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish, kelgusi besh yilda 120 milliard AQSH dollari, jumladan, 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalarni jalb etish choralarini ko'rish" ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan [3].

Mazkur vazifa ijrosini ta'minlashda maxsus iqtisodiy zonalarda investitsiya muhiti jozibadorligini baholash, investitsiya loyihalarini moliyalashtirish diversifikatsiyasi darajasini oshirish, risklarni samarali boshqarish tizimini ishlab chiqish va takomillashtirish, qisqa muddatli hududiy investitsiya dasturlari hamda uzoq muddatli investitsiya muhitini yaxshilash strategiyalarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, ushbu jarayonlarni xalqaro me'yorlarga moslashtirib borish, investitsiya siyosatini xalqaro tashkilotlar talablari doirasida transformatsiya qilishni jadallashtirish, investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishga qaratilgan taklif va tavsiyalarni ilmiy asoslash hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 17-fevraldagi "Maxsus iqtisodiy zonalar to'g'risida"gi O'RQ-604-son Qonuni¹, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 27-dekabrda "Tadbirkorlar uchun teng sharoitlar va adolatli raqobat muhitini ta'minlash bo'yicha navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-229-son Farmoni², 2022-yil 8-aprelda "Tadbirkorlik muhitini yaxshilash va xususiy sektorni rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o'sish uchun shart-sharoitlar yaratish borasidagi navbatdagi islohotlar to'g'risida"gi PF-101-son Farmoni³, 2022-yil 13-iyundagi "Maxsus iqtisodiy, kichik sanoat, yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalari faoliyati samaradorligini oshirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-153-son Farmoni⁴, 2021-yil 4-noyabrda "Urgut" erkin iqtisodiy zonasi faoliyatini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5278-son Qarori⁵, Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 14-yanvardagi 16-son qarori⁶ bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturini shakllantirish va amalga oshirish tartibi to'g'risida nizom" hamda boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Shu bilan birga, "Urgut" erkin iqtisodiy zonasining jadal rivojlanishi uning faoliyat samaradorligini yanada chuqurroq ilmiy tahlil qilish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Birinchidan, statistik ko'rsatkichlar dinamikasida ayrim tafovutlar kuzatiladi. Jumladan, ishlab chiqarish hajmi 2022-yilda 4 855,0 mlrd so'm bilan eng yuqori darajaga yetgan bo'lsa, 2023-yilda 3 833,0 mlrd so'mni tashkil etgan va 2024-yilda qisman tiklanish tendensiyasi kuzatilgan [4]. Ushbu holat investitsiyalar hajmi ortib borayotgan sharoitda ishlab chiqarish barqarorligini yanada mustahkamlash, jalb etilgan kapital va real mahsulot ishlab chiqarish o'rtasidagi samaradorlik bog'liqligini chuqurroq o'rganish zarurligini ko'rsatadi. Ikkinchidan, zona faoliyatida infratuzilmaviy muvozanatni ta'minlash, malakali kadrlar salohiyatini oshirish, kichik korxonalarining eksport bozorlariga chiqishini yengillashtirish va mahalliy moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish dolzarb ahamiyatga ega. Uchinchidan, nazariy jihatdan muhim masalalardan biri sifatida zona faoliyatining mahalliy iqtisodiyot bilan real bog'lanish darajasi, xususan, mahalliy ta'minotchilar, kooperatsiya zanjirlari va texnologik transfer jarayonlarini kengroq ilmiy tahlil qilish zarurati mavjud.

Ushbu jihatlar bevosita ilmiy bo'shliqni shakllantiradi. O'zbekiston EIZlari, jumladan, "Urgut" zonasi bo'yicha mavjud tadqiqotlarning aksariyati tavsifiy-statistik xarakterga ega bo'lib, ko'pincha jalb etilgan investitsiyalar va yaratilgan ish o'rinlarining mutlaq ko'rsatkichlarini tahlil qilish bilan cheklanadi. Biroq zona samaradorligini nisbiy va moliyaviy asoslangan ko'rsatkichlar, jumladan, bir ish o'rniga yoki bir dollar eksportga to'g'ri keluvchi investitsiya hajmi, davlat imtiyozlarining qaytim koeffitsiyenti hamda hududiy ko'lam orqali baholashga qaratilgan kompleks metodologik tahlil hali yetarli darajada ishlab chiqilmagan.

Ushbu maqolaning maqsadi "Urgut" EIZ misolida erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarni tashkil etish hamda takomillashtirishning iqtisodiy-tashkiliy mexanizmlarini, shuningdek, ularning real samaradorligini xalqaro nazariy yondashuvlar prizmasida tahlil qilish va ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iborat.

1 O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 17.02.2020 yildagi O'RQ-604-son <https://lex.uz/ru/docs/-4737511?ONDATE=23.01.2025%2000>

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 24.11.2025 yildagi PF-229-son <https://lex.uz/ru/docs/-7852957>

3 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 20.06.2023 yildagi PF-101-son <https://lex.uz/docs/-6508429>

4 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 04.09.2025 yildagi PF-153-son <https://lex.uz/uz/docs/-7716359>

5 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 04.11.2021 yildagi PQ-5278-son <http://lex.uz/uz/docs/-5710312>

6 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 14.01.2023 yildagi 16-son <https://lex.uz/uz/docs/-6354079>

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilanadi: EIZlar samaradorligi bo'yicha zamonaviy nazariy paradigmalarni tizimlashtirish; "Urgut" EIZ investitsion-ishlab chiqarish dinamikasini 2017–2024-yillar kesimida miqdoriy baholash; infratuzilma sarmoyalari va hududiy kengayishning iqtisodiy qaytimini tahlil qilish; zonani barqaror mintaqaviy o'sishning muhim omiliga aylantirish yo'nalishlarini asoslash.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Erkin iqtisodiy zonalar bo'yicha ilmiy adabiyotlar keng va metodologik jihatdan rang-barang bo'lib, ularni shartli ravishda beshta yo'nalishga ajratib o'rganish maqsadga muvofiqdir. O'zbek iqtisodiy maktabida ushbu konseptual baza Vahobov, Xajibakiev va Mo'minovlarning "Erkin iqtisodiy hududlar" asarida tizimlashtirilgan. Unda EIH mazmuni, me'yoriy-huquqiy asoslari, tasnifiy jihatlari, investitsiya muhiti va logistika infratuzilmasi rivojlangan hamda rivojlanayotgan davlatlar tajribasi asosida yoritilgan [5].

Xorijiy olimlardan D. Zh. Zeng o'zining Jahon banki uchun tayyorlagan fundamental tadqiqotida Shenchjen zonasi 1980–1984-yillarda yiliga o'rtacha 58 foizlik o'sishni qayd etganini, bu ko'rsatkich milliy o'rtacha 10 foizlik o'sish fonida alohida ahamiyat kasb etishini ta'kidlaydi. Muallif ushbu muvaffaqiyatni faqat soliq imtiyozlari bilan emas, balki zonalarining yirik sanoat klasterlariga aylanib, iqtisodiy o'sish tezlatgichi vazifasini bajargani bilan izohlaydi [6].

S. Frik va A. Rodrigues-Pose 22 ta rivojlanayotgan davlatdagi 346 ta EIZni tungi yorug'lik ma'lumotlari asosida tahlil qilib, zonalarining atrofdagi hududlar iqtisodiy o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini aniqlaganlar. Shu bilan birga, ushbu ta'sir masofa ortishi bilan susayishi, xususan, 50 km dan uzoq hududlarda uning sezilarli darajada kamayishi qayd etilgan [7].

T. Farole va G. Akinchi Jahon banki uchun tahrir qilgan jamlama asarda EIZlar faoliyatining iqtisodiy o'sishga ta'siri turli mamlakatlar tajribasi asosida tahlil qilingan. Tadqiqotda ayrim zonalarining atrofdagi iqtisodiy muhit bilan integratsiyalashuvi yetarli darajada bo'lmagani, shu sababli ularning hududiy rivojlanishdagi samaradorligini oshirish zarurligi asoslab berilgan [8].

A. Eraliyev erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini rivojlantirish va investitsiyalarni jalb qilish masalalarini tahlil qilib, imtiyozlar tizimi hamda investorlar manfaatdorligini oshirish yo'nalishlarini ko'rsatadi [9]. K. M. Qilicheva esa erkin iqtisodiy hududlarda investitsion faollikni oshirish masalalariga bag'ishlangan tadqiqotida hududiy moliyaviy salohiyat va investitsiya muhiti o'rtasidagi bog'liqlikka alohida e'tibor qaratadi [10].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot bitta zonani chuqur o'rganishga qaratilgan keys-tahlil dizayniga asoslanadi hamda miqdoriy va sifatiy yondashuvlarni o'zaro uyg'unlashtiradi. Ishning empirik bazasini "Urgut" EIZ direksiyasining 2017-2024-yillarga oid rasmiy hisobot ko'rsatkichlari tashkil etadi. Tahlilda metodlar majmuasidan foydalanildi. Jumladan, tizimli-strukturaviy tahlil zonani yagona iqtisodiy tizim sifatida ko'rib chiqish, uning huquqiy, infratuzilmaviy va investitsion komponentlari o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashga xizmat qildi. Statistik-dinamik tahlil orqali o'sish sur'atlari, bazis va zanjir indeksleri hamda o'rtacha yillik o'sish koeffitsiyenti hisoblandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

2017-2024-yillarda loyihalar soni 2,8 baravar, jalb etilgan investitsiyalar hajmi 8,2 baravar, eksport hajmi esa 2018-yilga nisbatan qariyb 14 baravar oshgan. O'rtacha yillik o'sish sur'ati investitsiyalar bo'yicha taxminan 35 foizni, eksport bo'yicha esa 55 foizni tashkil etgan. "Urgut" EIZning yetti yillik rivojlanish dinamikasi dastlabki tahlillarga ko'ra izchil o'sish tendensiyasini namoyon etadi. Quyidagi 1-jadvalda zonaning asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi keltirilgan (1-jadval).




1-jadval "Urgut" EIZ asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (2017-2024-yillar)⁷

| Yil | Loyihalar soni | Loyiha qiymati, mln AQSH dollari | Ishga tushgan loyihalar soni | Ish o'rinlari soni | Ishlab chiqarish hajmi, mlrd so'm | Eksport hajmi, mln AQSH dollari |
|------|----------------|----------------------------------|------------------------------|--------------------|-----------------------------------|---------------------------------|
| 2017 | 58 | 188,7 | – | – | – | – |
| 2018 | 67 | 227,1 | 16 | 690 | 294,0 | 8,6 |
| 2019 | 67 | 228,7 | 41 | 2 793 | 784,0 | 30,2 |
| 2020 | 84 | 402,6 | 55 | 3 663 | 1 165,0 | 30,0 |
| 2021 | 104 | 619,7 | 62 | 3 993 | 2 462,0 | 63,0 |
| 2022 | 129 | 719,6 | 77 | 5 587 | 4 855,0 | 114,8 |
| 2023 | 161 | 1 091,1 | 86 | 6 386 | 3 833,0 | 86,9 |
| 2024 | 162 | 1 540,6 | 84 | 6 618 | 4 418,0 | 119,9 |

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, 2022-yildan keyin investitsiyalar egri chizig'i yuqori o'sish sur'atini saqlab qolgan, ishlab chiqarish va eksport ko'rsatkichlarida esa nisbatan barqarorlashuv tendensiyasi kuzatilgan (1-rasm).

1-rasm. "Urgut" EIZ investitsiya, eksport va ishlab chiqarish dinamikasi (2017-2024)



1-rasm. "Urgut" EIZda investitsiyalar, eksport va ishlab chiqarish dinamikasi (2017–2024-yillar)⁸

Mutlaq o'sish ko'rsatkichlarining iqtisodiy mazmunini yanada chuqurroq ochib berish uchun nisbiy ko'rsatkichlar tahliliga murojaat qilish maqsadga muvofiq. 2-jadvalda muallif tomonidan hisoblangan samaradorlik koeffitsiyentlari keltirilgan (2-jadval).

2-jadval "Urgut" EIZ samaradorligining nisbiy koeffitsiyentlari⁹

| Yil | Bir ish o'rniga to'g'ri keluvchi investitsiya, ming AQSH dollari | Loyihalarni ishga tushirish darajasi, foizda | Eksport intensivligi, foizda | O'rtacha loyiha hajmi, mln AQSH dollari |
|------|--|--|------------------------------|---|
| 2018 | 329,1 | 23,9 | 3,8 | 3,39 |
| 2019 | 81,9 | 61,2 | 13,2 | 3,41 |
| 2020 | 109,9 | 65,5 | 7,5 | 4,79 |
| 2021 | 155,2 | 59,6 | 10,2 | 5,96 |
| 2022 | 128,8 | 59,7 | 16,0 | 5,58 |
| 2023 | 170,9 | 53,4 | 8,0 | 6,78 |
| 2024 | 232,8 | 51,9 | 7,8 | 9,51 |


Mazkur koeffitsiyentlar mutlaq raqamlar ortida namoyon bo'ladigan ikki muhim tendensiyani aniqlash imkonini beradi. Birinchidan, bir ish o'rniga to'g'ri keluvchi investitsiya hajmi 2019-yildagi 81,9 ming AQSH dollaridan 2024-yilda 232,8 ming AQSH dollarigacha, ya'ni qariyb uch baravarga oshgan. Bu esa yangi ish o'rinlarini yaratishda kapital sig'imi ortib borayotganini ko'rsatadi. Ikkinchidan, loyihalarni ishga tushirish

7 Muallif ishlanmasi.

8 Muallif ishlanmasi.

9 Muallif ishlanmasi.

darajasi 2020-yildagi 65,5 foizdan 2024-yilda 51,9 foizni tashkil etgan bo'lib, bu loyihalarni amaliy bosqichga olib chiqish mexanizmlarini yanada takomillashtirish imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatadi. Mazkur holat ro'yxatdan o'tgan loyihalarni amaliy bosqichga olib chiqish jarayonlarini yanada samarali tashkil etish uchun qo'shimcha imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi. Mazkur ikki ko'rsatkichning turli yo'nalishda harakatlanishi aks ettirilgan tendensiyani shakllantiradi (2-rasm).



2-rasm. Kapital sig'iminin o'sishi va loyihalarni ishga tushirish darajasi ko'rsatkichlari dinamikasi¹⁰

Eksport intensivligi ko'rsatkichi ham ushbu xulosani mustahkamlaydi. Mazkur ko'rsatkich 2022-yilda 16,0 foiz bilan eng yuqori darajaga yetgan bo'lsa, 2024-yilda 7,8 foizni tashkil etgan. Bu holat jalb etilgan investitsiyalarni eksport salohiyatiga ega loyihalarga yo'naltirish samaradorligini yanada oshirish zarurligini ko'rsatadi. Shuningdek, kapitalning bir qismi ichki bozorga yo'naltirilgan yoki hali to'liq ishga tushmagan loyihalar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Demak, zonaning investitsion jozibadorligi ortib borayotgan sharoitda investitsiyalarni real ishlab chiqarish va eksport natijalariga aylantirish mexanizmlarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Zona jozibadorligining moddiy asoslaridan biri 2021-2022-yillarda yaratilgan, umumiy qiymati 411 132,2 mln so'mga teng infratuzilma majmuasi hisoblanadi. Uning tarmoqlar kesimidagi taqsimoti 3-jadvalda keltirilgan bo'lib, bu infratuzilma sarmoyalarining tarkibiy xususiyatlarini yanada aniqroq baholash imkonini beradi (3-jadval).

3-jadval "Urgut" EIZ infratuzilma sarmoyalarining tuzilmasi (2021-2022-yillar)¹¹

| Yo'nalish | Qiymati, mln so'm | Ulushi, foizda | Hajmi |
|----------------------------|-------------------|----------------|-------------------------|
| Tabiiy gaz tarmog'i | 164 190,0 | 39,9 | 161,8 km + 28 ta obyekt |
| Elektr energiyasi tarmog'i | 117 276,5 | 28,5 | 51,85 km + 31 ta obyekt |
| Kanalizatsiya tarmog'i | 43 900,0 | 10,7 | 53 km + 10 ta obyekt |
| Suv ta'minoti tarmog'i | 43 810,0 | 10,7 | 70,5 km + 24 ta obyekt |
| Avtomobil yo'llari | 40 957,5 | 10,0 | 52,93 km |
| Aloqa tarmog'i | 998,2 | 0,2 | 50,8 km |
| Jami | 411 132,2 | 100,0 | — |

Tadqiqot natijalaridan ko'rinadiki, infratuzilma sarmoyalarining 68,4 foizi energetika ta'minotiga yo'naltirilgan. Bu esa zonaning energiya sig'imi yuqori bo'lgan sanoat tarmoqlari, xususan, kimyo, metallni qayta ishlash va qurilish materiallari ishlab chiqarish yo'nalishlarida rivojlanayotganini tasdiqlovchi muhim dalil hisoblanadi.

Hududiy kengayish tahlili Frik va Rodrigues-Pose tomonidan asoslangan masofaviy susayish masalasini "Urgut" EIZ misolida ham ilmiy jihatdan o'rganish zarurligini ko'rsatadi [11]. Jumladan, 447,32 gektarlik yangi maydonning 25,5 foizi, ya'ni 114,1 gektari bevosita Urgut tumanida joylashgan. Qolgan 74,5 foizi esa Samarqand viloyatining 15 ta boshqa tumaniga, jumladan, Jomboy (98,36 ga), Paxtachi (80,0 ga), Nurobod (40,0 ga) va boshqa hududlarga taqsimlangan.

Institutsional rivojlanish nuqtai nazaridan qaralganda, "Urgut" EIZ allaqachon ijobiy natijalarni namoyon

10 Muallif ishlanmasi.

11 Muallif ishlanmasi.



etmoqda. Zona faoliyati natijasida 12 mingdan ortiq ish o'zni yaratilgan, viloyatga zamonaviy boshqaruv yondashuvlari hamda soliq-bojxona amaliyoti joriy etilgan. Shu jihatdan "Urgut" EIZ mintaqaviy sanoatlashuvning amaliy va ko'rgazmali modeliga aylangan.

Tahlil natijalari zonani kelgusida ekstensiv rivojlanish, ya'ni maydon va imtiyozlarni kengaytirish modelidan intensiv rivojlanish, ya'ni samaradorlik, qo'shilgan qiymat va hududiy kooperatsiyani kuchaytirishga asoslangan modelga bosqichma-bosqich o'tkazish zarurligini asoslaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tahlil "Urgut" EIZ misolida erkin iqtisodiy zonalarining mamlakat investitsion jozibadorligini oshirishdagi muhim o'rnini ko'rsatdi. Zona mutlaq ko'rsatkichlar bo'yicha jadal rivojlanmoqda. Shu bilan birga, nisbiy samaradorlik koeffitsiyentlari kapital sig'iminig ortib borayotganini hamda loyihalarni ishga tushirish va eksport intensivligini yanada rivojlantirish uchun qo'shimcha imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi. Bu esa O'zbekiston EIZlari rivojlanishida ekstensiv bosqichdan intensiv bosqichga bosqichma-bosqich o'tish muhimligini asoslaydi. Quyidagi takliflar mazkur xulosalardan kelib chiqadi:

soliq va bojxona imtiyozlarini faqat loyiha ro'yxatdan o'tgani uchun emas, balki real ishga tushirilgan quvvat, yaratilgan qo'shilgan qiymat va eksport hajmiga bog'lagan holda bosqichli, ya'ni differensiallashgan tarzda berish loyihalarni ishga tushirish darajasini oshirishga xizmat qiladi;

ro'yxatda turgan, ammo belgilangan muddatda ishga tushmagan loyihalar bo'yicha sabablarni tahlil qiluvchi monitoring tizimini joriy etish hamda band qilingan yer va resurslarni qayta taqsimlash mexanizmini ishlab chiqish maqsadga muvofiq;

hudud rezidentlari bilan viloyatdagi kichik va o'rta korxonalar o'rtasida ta'minot dasturlarini joriy etish, mahalliy xomashyo ulushiga bog'liq qo'shimcha imtiyozlar belgilash orqali hududiy kooperatsiyani kuchaytirish zarur;

infratuzilma byudjetida energetika ta'minoti ulushini saqlagan holda, kasb-hunar markazlari bilan hamkorlikda maqsadli kadrlar tayyorlash hamda zonaning raqamli infratuzilmasini, jumladan, "yagona darcha", e-bojxona va raqamli monitoring tizimlarini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi;

hudud faoliyatini faqat mutlaq raqamlar asosida emas, balki ushbu maqolada taklif etilgan nisbiy koeffitsiyentlar, ya'ni bir ish o'rniga to'g'ri keluvchi investitsiya, eksport intensivligi va loyihalarni ishga tushirish darajasi asosida muntazam baholaydigan KPI tizimini direksiya amaliyotida takomillashtirish lozim.

Yakuniy umumlashma sifatida qayd etish lozimki, "Urgut" EIZ tajribasi mintaqaviy sanoatlashuvning muvaffaqiyatli rivojlanish modelini namoyon etadi. Uning istiqboldagi barqaror taraqqiyoti maydon va imtiyozlarni kengaytirish bilan bir qatorda, jalb etilgan kapitalni real qo'shilgan qiymatga aylantirish samaradorligini oshirishga ham bevosita bog'liqdir. Mazkur tadqiqotda taklif etilgan nisbiy koeffitsiyentlar metodologiyasi boshqa EIZlar va kichik sanoat zonalarini baholashda ham qo'llanilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. United Nations Social Development Network. *World Economic Situation and Prospects 2025* / Division for Inclusive Social Development (DISD) [Elektron resurs]. – URL: <https://unsdsn.org>.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 15-yanvardagi eksport, investitsiya va mahalliy lashtirishni kengaytirish masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishidagi nutqi [Elektron resurs]. – URL: <https://president.uz/uz/lists/view/329>.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. – 2022. <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
4. "Urgut" erkin iqtisodiy zonasi (EIZ) direksiyasi va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi (stat.uz) rasmiy ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan ishlanma. – 2024.
5. Vahobov A. V. Erkin iqtisodiy hududlar / A. V. Vahobov, Sh. X. Xajibakiyev, N. G'. Mo'minov. – Toshkent: Baktria Press, 2020. – 196 b.
6. Zeng D. Z. How Do Special Economic Zones and Industrial Clusters Drive China's Rapid Development? // World Bank Policy Research Working Paper. – 2011. – No. 5583.
7. Frick S. A. Are Special Economic Zones in Emerging Countries a Catalyst for the Growth of Surrounding Areas? / S. A. Frick, A. Rodríguez-Pose // *Transnational Corporations*. – 2019. – Vol. 26, No. 2. – P. 75–94.
8. Farole T. *Special Economic Zones: Progress, Emerging Challenges, and Future Directions* / T. Farole, G. Akinci. – Washington, DC: World Bank, 2011. – 308 p.
9. Eraliyev A. Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini rivojlantirish va investitsiyalarni jalb qilish masalalari // *Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil*. – 2023. – Vol. 1, No. 7. – B. 80–83. DOI: 10.60078/2992-877X-2023-vol1-iss7-pp80-83.
10. Qilicheva K. M. Erkin iqtisodiy hududlarda investitsion faollikni oshirish masalalari // *Green Economy and Development*. – 2023. – No. 5. – B. 42–48.
11. Frick S. A. Special Economic Zones and Sourcing Linkages with the Local Economy: Reality or Pipedream? / S. A. Frick, A. Rodríguez-Pose // *The European Journal of Development Research*. – 2022. – Vol. 34, No. 2. – P. 655–676.

muhandislik

& iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100